



O'SMIRLARDA YUZAGA KELADIGAN DESTRUKTIV XULQNING SHAKLLANISHI

Jorakulova Dildora Ziyadullayevna

O'zMPU Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Abdumalikova Zilola

O'zMPU talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'smirlarda yuzaga keladigan destruktiv xulqning rivojlanishi, uning psixologik, pedagogik va ijtimoiy omillari tahlil qilinadi. Destruktiv xatti-harakatlarning asosiy ko'rinishlari, ularning kelib chiqish sabablari yoritilgan. Shuningdek, o'smirlik davrining o'ziga xos xususiyatlari, oila va tengdoshlar muhiti, ommaviy axborot vositalari va raqamli texnologiyalarning ta'siri yoritiladi.

Kalit so'zlar: destruktiv xulq, o'smirlik davri, tarbiya, oilaviy muhit, stress, deviant xulq, agressivlik, tengdoshlar ta'siri.

Abstract: This article analyzes the development of destructive behavior in adolescents and its psychological, pedagogical and social factors. The main manifestations of destructive behavior and the causes of their emergence are highlighted. In addition, the specific characteristics of adolescence, the influence of family and peer environments, as well as the impact of mass media and digital technologies are discussed.

Key words: Destructive behavior, adolescence, upbringing, family environment, stress, deviant behavior, aggressiveness, peer influence.

Аннотация: В данной статье анализируется развитие деструктивного поведения у подростков, а также его психологические, педагогические и социальные факторы. Освещаются основные проявления деструктивного поведения и причины их возникновения. Кроме того, рассматриваются особенности подросткового возраста, влияние семьи и среды сверстников, а также воздействие средств массовой информации и цифровых технологий.

Ключевые слова: деструктивное поведение, подростковый возраст, воспитание, семейная среда, стресс, девиантное поведение, агрессивность, влияние сверстников.

Bugungi kunda o'smirlar orasida destruktiv xulq-atvorning ortib borayotgani jamiyatning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Bu davr inson hayotidagi eng murakkab va mas'uliyatli bosqichlardan biri hisoblanib, bu davrda shaxsning xarakteri, dunyoqarashi va ijtimoiy munosabatlari shakllanadi. Organizmda fiziologik o'zgarishlar sodir bo'ladi, mustaqil fikrlash faydo bo'ladi, shaxsiy "men"i rivojlanadi. Aynan shu jarayonda turli ichki va tashqi omillar ta'sirida agressivlik, qoidabuzarlik, zo'ravonlik, ijtimoiy me'yorlarga zid xatti-harakatlar kabi destruktiv xulq namoyon bo'lishi mumkin. Bunday xulq-atvor ilmiy adabiyotlarda "destruktiv xulq" yoki

“deviant xulq” deb ataladi. . Destruktiv xulqning shakllanishiga oiladagi nosag'lom muhit, ota-onalar nazoratining sustligi, tengdoshlar ta'siri, internet va ommaviy axborot vositalari shuningdek, psixologik muammolar sabab bo'lishi mumkin. Avvalo, oilaviy muhit muhim omil hisoblanadi. Oiladagi nizolar, ota-onaning befarqligi, zo'ravonlik yoki noto'g'ri tarbiya usullari o'smir ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mehr va e'tibor yetishmasligi o'smirda agressivlik hamda norozilik hissini kuchaytiradi. Destruktiv xulqning oldini olishda profilaktik ishlar muhim ahamiyatga ega. Bunda oila, maktab va psixolog hamkorligi zarur hisoblanadi. O'smir bilan doimiy muloqot qilish, uning qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash, bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda psixologik yordam ko'rsatish ijobiy natija beradi

Bu qiyin davrda o'smirning ong va kechinmalari maqsadi jinsiy mayl kabi kuchli biologik ehtiyoj bo'lib qolib, u bilan bog'liq bir qancha tajang kechinmalar vujudga keladi, emotsional doira kengayadi, dunyoqarash kengayadi, yangi qiziqish va manfaatlar paydo bo'ladi. O'smir yuzaga kelayotgan o'zgarishlarni payqaydi, ammo ularni anglab yetavermaydi. Tengdoshlari bilan uzviy muloqotda, o'zini ular bilan qiyoslab hayotiy munosabatlar doirasini kengaytirish zarurati paydo bo'ladi. Tengdoshlar muhiti ham o'smir xulqiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. O'smirlar ko'pincha tengdoshlar tomonidan tan olishinishi va qabul qilinishiga intiladi.

Destruktiv xulq muammosi 20-asrning o'rtalarida shakllangan. Psixologik yondashuv shaxsning og'ishgan xulqidagi alohida ko'rinishlarini ijtimoiy-psixologik tafovutini ajratishga asoslangan.

Destruktiv xulq 2 asosiy turlarda namoyon bo'ladi:

1. Delinkvent tur- jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy xuquqiy me'yorlarga qarama qarshi bo'lgan xatti-harakatlarga xulqning yo'nalganligi maishiy oilaviy nizolar, yo'l transport xodisalari, qo'pollik.

2. Deviant tur- jamiyatda qabul qilingan axloqiy me'yorlarga qarama-qarshi xulqiy ko'rinishlarni namoyon etish mexr muhabbatga ega bo'lmaganligi.

Deviant xulq-atvorni o'rganishning asosini E. Drukgeym tashkil etadi va u anomiya tushunchasini kiritdi. “O'z joniga qasd qilish”(1912) klassik asarida anomiyaga to'liqroq ta'rif berdi. Anomiyaga deganda, u keskin o'zgarishlar,

sakrashlar, ya'ni jamiyatning me'yoriy tizimning yo'q qilinishi yoki zaiflashishi holaatini tushundi. Bu talqinda anomiya ijtimoiy tartibsizlikdir.

Abu Nasr Farobiy Arastuga o'xshab fazilatlarini 2 turga ajratgan:

1. Fozoil nutqiya (aql idrokka asoslangan fazilatlar)

2. Fazoil xulqiya (xulqiy fazilatlar)ga ajratadi hamda ularning xususiyatlarini ta'kidlab o'tadi.

Deviant xulqning jismoniy shartlariga iqlimiy, geofizik, ekologik va boshqa omillarni kiritish mumkin. Masalan, shovqin, torlik, stressni potentsiyalovchi geomagnit ikkilanish kabi ko'rinishlar tajovuzkor va Istalmagan axloqning nomaxsus sabablari bo'lishi mumkin. Avstriyalik rejissor Ulrix Zaydlning “Jazirama issiq” hujjatli filmida havo yuqori haroratining inson psixik holatiga ta'siri g'ayritabiiy tarzda aniq tasvirlab berilgan. Ota-onaning o'smir xulqidagi o'zgarishlar sababini izlashi yuzaga kelgan muammolarni konstruktiv tarzda hal etishi asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Agar o'smirning oila a'zolari muntazam tarzda o'zaro nizolar, baqiriqlar orqali ta'sir o'tkazish asosida muammolarni hal etishga o'rgangan bo'lsalar, boshqa ijtimoiy vaziyatda o'smir aynan o'zini shunday tutishga intiladi;

-shaxsiy muammolar(fiziologik va psixologik xarakterdagi muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'luvchi o'smirlarda jinsiy rivojlanish xususiyatlari-pubertat davri xususiyatlarining namoyon bo'lishi);

-o'zining tashqi ko'rinishidan norozi bo'lish-"Terzit kompleksi" (kattalar tomonidan noadekvat idrok qilinishi). O'smir o'zini kattalardek his etishida unga bolalar kabi munosabatda bo'lish yoqmaydi;

-o'smirdagi tafakkurning tanqidiyligi-kattalar hatti-harakatiga nisbatan shubha bilan qarash, ularda o'rnatilgan axloqiy me'yorlarga nisbatan e'tiroz hislarining shakllanishiga olib keladi;

-o'smirda nisbatan ma'lum bir ijtimoiy tamg'alarining bosilishi(o'qituvchilar tomonidan o'smirning o'zlashtirma olmasligi, u bilan gaplashish befoydaligini ta'kidlash);

-ijtimoiy omillar(jamiyatda muammolarni kuch ishlatish orqali hal etilishi haqidagi g'oyasining o'rnatilganligi, maktablardagi o'quv sinflarining haddan ziyod to'laligi, maktabdan haddan ziyod charchash).

Xulosa qilib aytganda, o'smirlar davrida destruktiv xulqning shakllanishi turli psixologik, oilaviy va ijtimoiy omillar bilan chambarchas bog'liqdir. Bu davrda o'smirlarning hissiy barqarorligi, mustaqillikka intilishi hamda atrof-muhit ta'siriga tez berilishi salbiy xatti-harakatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Ayniqsa, oiladagi nosog'lom muhit, tengdoshlarning salbiy ta'siri destruktiv xulq rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Shu sababli o'smirlarni qo'llab-quvvatlash, ularning qiziqish va ehtiyojlariga e'tibor berish, sog'lom ijtimoiy muhit yaratish orqali salbiy holatlarning kamayishiga erishish mumkin.

ADABIYOTLAR FOYDALANILGAN:

1. G'oziyev E. Umumiy psixologiya. - T "O'qituvchi", 2002 .G'oziyev E. Inson psixikasining rivojlanishi.- T.."O'qituvchi", 1996
2. Petrovskiy A.V.Umumiy psixologiya.- T.."O'qituvchi", 1992.Davlatshin M.G.
3. Umumiy psixologiya, yosh psixologiyasi va pedagogic psixologiya. Gomezo tahririda.- T.."Sharq", 1982.
4. Jurakulova Dildora Ziyadullayevna "Psixologik zo'ravonlikning o'smirlarda destruktiv xulq shakllanishiga ta'siri" Maktabgacha va Maktab ta'limi, 2026-yil, fevral, 2(2)-son ta'limi.
5. "Behavior in Teenegers during Globalization", Tolibjonova ,A.Z. (2023). Psychological Factors of Manifestation of Aggressive.
6. "Deviant xulq - atvor psixologiyasi" L.M.Xakimova. Toshkent 2014